



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umiddjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLİYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITSION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSİYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLİYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGİYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGİYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI	303
Tashmuxeimova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIIYASI VA INTEGRATSIIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
HUDUDIIY SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI KO'P OMILLI STATISTIK TAHLIL ETISHDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI	319
Tag'oyev Feruz Yorqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIIY INVESTITSIIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR	326
Egamberdiev Abbasxon Sherali o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	331
Nurullayev Baxrom Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH	337
Ne'matova Mavsuma	
ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA ISLOMIY MOLIYA VA NOBANK KREDIT TASHKILOTLARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI	341
Galatov Abbas Alibekovich, Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
IQTISODIIY FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT FISKAL SIYOSATI HOLATI TAHLILI	346
Xudayberginova Nigora Turgunbayevna	
MEHNATGA HAQ TO'LAHNING MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLIHNING ASOSIIY VAZIFALARI	356
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
"CRADLE TO CRADLE" VA "CRADLE TO GRAVE" KONSEPSIYALARINING UMUMIY VA XUSUSIIY JIHATLARI	360
Sodikov Zokir Rustamovich	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	366
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI VA MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI: KEYNESIAN YONDASHUV NUQTAI NAZARIDAN.....	370
Shermatov G'ofurjon G'ulamovich	
QURILISH KORXONALARIDA INQIROZGA QARSHI BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (ROSSIYA TAJRIBASI)	377
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA YASHIL XIZMATLAR SEKTORINING TRANSFORMATSIYASI.....	385
Aliqulova Laylo Ziyadin qizi	
VIRTUAL TA'LIM MUHITI ORQALI TALABALARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	390
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	



VIRTUAL TA'LIM MUHITI ORQALI TALABALARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Bozorova Muazzam Hamid qizi

Yangi asr universiteti o'qituvchisi

Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada virtual ta'lim muhiti sharoitida talabalarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida muloqotning mazmuni va shakllari o'zgarib, talabalardan yuqori darajadagi faollik, mustaqillik va hamkorlikni talab etmoqda. Tadqiqot doirasida virtual ta'lim platformalarida sinxron, asinxron va gibrid muloqot shakllarining pedagogik imkoniyatlari, o'qituvchi moderatsiyasining roli, platforma funksional imkoniyatlari hamda psixologik omillarning ahamiyati o'rganildi. Empirik tadqiqot natijalari virtual muhitda puxta rejalashtirilgan muloqot faoliyati talabalarning fikr bildirish, tinglash va konstruktiv hamkorlik ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: virtual ta'lim muhiti, muloqot ko'nikmalari, interaktiv platformalar, sinxron va asinxron muloqot, pedagogik dizayn, ta'lim samaradorligi.

Abstract. This article provides a theoretical and empirical analysis of the key factors influencing the development of students' communication skills in a virtual learning environment. In digitally mediated educational settings, the content and forms of communication undergo significant transformation, requiring a high level of learner engagement, autonomy, and collaboration. Within the framework of the study, the pedagogical potential of synchronous, asynchronous, and hybrid communication formats on virtual learning platforms is examined, along with the role of instructor moderation, platform functionality, and relevant psychological factors. The empirical findings demonstrate that well-structured and purposefully designed communication activities in virtual environments significantly enhance students' abilities to express ideas, actively listen, and engage in constructive collaboration.

Key words: virtual learning environment, communication skills, interactive platforms, synchronous and asynchronous communication, pedagogical design, educational effectiveness.

Аннотация. В статье с теоретической и эмпирической точек зрения анализируются основные факторы, влияющие на формирование коммуникативных навыков студентов в условиях виртуальной образовательной среды. В образовательном процессе, организованном на основе цифровых технологий, содержание и формы коммуникации трансформируются, что требует от обучающихся высокого уровня активности, самостоятельности и сотрудничества. В рамках исследования изучаются педагогические возможности синхронных, асинхронных и гибридных форм коммуникации на виртуальных образовательных платформах, роль преподавательской модерации, функциональные возможности платформ, а также значение психологических факторов. Результаты эмпирического исследования показывают, что тщательно спланированная коммуникативная деятельность в виртуальной среде способствует значительному развитию у студентов навыков выражения мыслей, активного слушания и конструктивного взаимодействия.

Ключевые слова: виртуальная образовательная среда, коммуникативные навыки, интерактивные платформы, синхронная и асинхронная коммуникация, педагогический дизайн, эффективность обучения.

KIRISH

So'nggi yillarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va virtual platformalarning keng joriy etilishi o'quv jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy auditoriya mashg'ulotlaridan farqli ravishda virtual ta'lim muhiti talaba va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotni asosan raqamli vositalar orqali amalga oshirishni talab etadi. Ushbu sharoitda muloqot ko'nikmalari ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim



kompetensiyalardan biriga aylanmoqda. Talabani o'z fikrini aniq ifodalashi, bahs-munozaralarda ishtirok etishi va jamoaviy faoliyatni samarali tashkil etishi virtual ta'limning muvaffaqiyatli kechishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Virtual ta'lim muhiti sharoitida muloqot masalasi so'nggi o'n yilliklarda pedagogika, ta'lim texnologiyalari va ta'lim psixologiyasi sohalarida faol o'rganilayotgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida muloqotning mazmuni, shakllari va funksional ahamiyati tubdan o'zgarib, u an'anaviy auditoriya sharoitidagi bevosita muloqotdan farqli xususiyatlarga ega bo'la boshladi. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda virtual ta'limda muloqotni izohlashda yangi nazariy yondashuvlar va tushunchalar shakllandi.

Xususan, xalqaro ilmiy tadqiqotlarda virtual ta'lim muhitidagi muloqot ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi doirasida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bilim shaxs tomonidan tayyor holatda qabul qilinmaydi, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir, fikr almashuv va hamkorlik jarayonida shakllanadi. Anderson va Garrison tadqiqotlarida onlayn ta'limda muloqot bilish jarayonining markaziy elementi sifatida baholanib, u talabalarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishida hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlanadi. Mualliflar virtual muhitda muloqot faqat axborot uzatish vositasi emas, balki kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi mexanizm ekanini ilmiy asoslab bergan.

Ilmiy adabiyotlarda virtual ta'limdagi muloqot sifati ko'pincha "ijtimoiy mavjudlik" tushunchasi bilan izohlanadi. Ushbu tushuncha talabani virtual muhitda o'zini real ta'lim hamjamiyatining bir qismi sifatida his etish darajasini anglatadi. Garrison, Anderson va Archer tomonidan ishlab chiqilgan "Community of Inquiry" modeli doirasida ijtimoiy mavjudlik samarali muloqotning muhim sharti sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, talaba virtual muhitda o'z fikrini erkin ifodalay olgan, boshqalarning fikriga munosabat bildirgan olgan taqdirda, uning o'quv jarayonidagi faolligi va motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi. Ushbu xulosalar virtual ta'lim muhitida muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslarini belgilab beradi.

Muloqot masalasini o'rganishda kognitiv faollik tushunchasi ham alohida o'rin tutadi. Jonassen tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda virtual ta'limda samarali muloqot talabalarning yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini – tahlil, solishtirish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Muallifga ko'ra, muloqotga asoslangan o'quv vazifalari talabalarni faqat bilimlarni qayta ishlab chiqishga emas, balki ularni yangi vaziyatlarda qo'llashga undaydi. Shu bois virtual muhitda muloqotning mavjudligi emas, balki uning mazmungan boy va tahliliy xarakterga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda virtual ta'limdagi muloqot sifatiga ta'sir etuvchi omillar qatorida pedagogik moderatsiya masalasi ham keng yoritilgan. Salmon tomonidan ishlab chiqilgan e-moderatsiya modeli virtual muhitda o'qituvchining rolini an'anaviy bilim beruvchi emas, balki muloqotni tashkil etuvchi va qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida talqin qiladi. Muallif virtual ta'limda o'qituvchi tomonidan beriladigan yo'naltiruvchi savollar, fikr-mulohazalar va muhokamani boshqarish talabalarning muloqotdagi faolligini oshirishini ilmiy asoslaydi. Ushbu yondashuv virtual ta'lim muhitida muloqot ko'nikmalarining o'z-o'zidan shakllanmasligini, balki maxsus pedagogik yondashuvni talab etishini ko'rsatadi.

Platformaning texnologik imkoniyatlari ham ilmiy tadqiqotlarda muloqot sifatini belgilovchi muhim omil sifatida qayd etiladi. OECD hisobotlarida interaktiv platformalarning forumlar, chatlar, videokonferensiyalar va guruhli loyiha vositalari orqali talabalarning o'zaro muloqotini kengaytirishi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, muloqot vositalari xilma-xil bo'lgan platformalarda talabalar turli kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning muloqot ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, platformaning qulay interfeysi va texnik barqarorligi muloqot faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

Virtual ta'limda muloqotning samaradorligi masalasi o'zaro baholash va refleksiya bilan bog'liq holda ham o'rganilgan. Boekaerts va Zimmerman tadqiqotlarida muloqot orqali tashkil etilgan reflektiv faoliyat talabalarning o'z fikrini tahlil qilish va boshqalarning nuqtayi nazarini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishi ko'rsatib berilgan. Ushbu tadqiqotlar virtual muhitda muloqot faqat tashqi faoliyat emas, balki ichki bilish jarayonlarini ham faollashtiruvchi omil ekanini tasdiqlaydi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham virtual ta'lim muhitida muloqot masalasi dolzarb yo'nalish sifatida qaralmoqda. O'zbekistonlik tadqiqotchilar raqamli ta'lim sharoitida talabalarning faolligi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida baholaydi. Xususan, raqamli ta'lim muhitida muloqot pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, u talabalarni mustaqil fikrlashga va jamoaviy faoliyatga jalb etishi ta'kidlanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, virtual ta'lim muhitida muloqot ko'nikmalarini shakllantirish ijtimoiy konstruktiv yondashuv, kognitiv faollik, pedagogik moderatsiya va platformaning texnologik imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq. Ilmiy tadqiqotlar virtual muhitda muloqot ta'lim jarayonining ikkilamchi elementi



emas, balki bilimlarni shakllantirish va chuqurlashtirishning asosiy mexanizmi ekanini asoslab beradi. Ushbu xulosalar mazkur tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi va empirik tahlil uchun muhim metodologik yo'nalishlarni belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aralash metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida talabalarning virtual ta'lim platformalaridagi muloqot faolligini aniqlash maqsadida so'rovnoma, kuzatuv va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. So'rovnoma savollari talabalarning sinxron va asinxron muloqotdagi ishtiroki, fikr bildirish faolligi va muloqotdan qoniqish darajasini aniqlashga qaratildi. Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi va sifat jihatdan umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Mazkur tadqiqot doirasida olingan empirik natijalar virtual ta'lim muhitida talabalarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni murakkab va ko'p omilli ekanini tasdiqlaydi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, virtual muhitda muloqot faolligi va sifati tasodifiy holat emas, balki texnologik, pedagogik va psixologik omillarning o'zaro uyg'unligi natijasida yuzaga keladi. Ushbu bo'limda olingan natijalar mazkur omillar kontekstida tahlil qilinadi va ularning o'zaro bog'liqligi muhokama etiladi.

Tadqiqotda kvantitativ empirik metod asosida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma savollari 5 ballik Likert shkalasi asosida tuzildi (1 – mutlaqo qo'llanilmaydi, 5 – to'liq qo'llaniladi). Respondentlar soni – N = 120 nafar talaba. Olingan ma'lumotlar deskriptiv statistika va ishonchlilik tahlili (Cronbach's Alpha) yordamida qayta ishlandi (1-jadval).

1-jadval. Virtual ta'lim platformalarining muloqot imkoniyatlarini baholash (deskriptiv statistika)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat (Mean)	Dispersiya (Variance)	Talqin
Forumlar orqali muloqot	4.21	0.42	Yuqori faollik
Chat vositalari	4.08	0.47	Barqaror
Videokonferensiyalar	4.34	0.39	Juda yuqori
Guruhli loyiha vositalari	4.17	0.44	Yuqori
Asinxron muhokamalar	4.26	0.41	Yuqori

Manba: Tadqiqotlar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

1-jadval natijalari platformaning funksional imkoniyatlari talabalar muloqot faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Videokonferensiya va asinxron muhokamalar eng yuqori baholangan.

Avvalo, tadqiqot natijalari platformaning funksional imkoniyatlari muloqot ko'nikmalarining shakllanishida tayanch omillardan biri ekanini ko'rsatdi. Muloqot uchun mo'ljallangan vositalar majmuasiga ega bo'lgan virtual platformalarda talabalar o'zaro aloqaga kirishishda kamroq to'siqlarga duch keladi. Ayniqsa, turli formatdagi muloqot vositalarining bir platforma doirasida mavjudligi talabalarga kommunikativ vaziyatlarni tanlash imkonini beradi. Bu holat muloqotni majburiy faoliyatdan ko'ra tabiiy va ehtiyojga asoslangan jarayonga aylantiradi. Natijalardan ko'rinadiki, faqat bitta muloqot kanali bilan cheklangan platformalarda talabalar muloqotga kamroq jalb etilgan, ularning fikr bildirish chastotasi va mazmuni nisbatan past bo'lgan.

Sinxron va asinxron muloqot shakllarining uyg'un qo'llanilishi muloqot ko'nikmalarining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilgani empirik ma'lumotlarda aniq namoyon bo'ldi. Sinxron muloqot real vaqt rejimida kechganligi sababli, talabalar o'rtasida tezkor fikr almashuvni ta'minladi va ijtimoiy yaqinlik hissini kuchaytirdi. Bu esa muloqotda ishtirok etishdan cho'chish holatlarini kamaytirib, talabalarni faol pozitsiyaga undadi. Shu bilan birga, sinxron muloqot davomida ayrim talabalar fikrini to'liq ifodalashga ulgurmasligi yoki tezkor muhokama sharoitida passivroq bo'lib qolishi holatlari ham kuzatildi (2-jadval).

2-jadval. Muloqot shakllari bo'yicha talabalar faolligi (sinxron va asinxron)

Muloqot shakli	O'rtacha ball	Standart og'ish	Talqin
Sinxron muloqot	4.32	0.61	Ijtimoiy mavjudlik kuchli
Asinxron muloqot	4.25	0.58	Reflektiv fikrlash rivojlangan
Gibrid muloqot	4.41	0.53	Eng samarali shakl

Manba: Tadqiqotlar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.



Gibrid muloqot shakli eng yuqori natijani ko'rsatdi, bu esa metodologiyada belgilangan sinxron va asinxron usullarning uyg'unligi samaradorligini isbotlaydi.

Asinxron muloqot esa mazmun jihatidan chuqurroq fikrlarning shakllanishiga xizmat qilgani bilan ajralib turdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, asinxron muhokamalarda talabalar o'z fikrlarini mantiqiy asoslashga, dalillar keltirishga va boshqalarning qarashlariga izchil munosabat bildirishga ko'proq e'tibor qaratgan. Bu holat asinxron muloqotning reflektiv xususiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Talabalar o'z fikrini yozma shaklda ifodalash jarayonida uni qayta ko'rib chiqish va aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan, bu esa muloqot sifatining oshishiga olib kelgan.

Tahlil natijalari o'qituvchining moderatsiya roli virtual muhitda muloqot ko'nikmalarining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. O'qituvchi faol moderatsiya olib borgan guruhlarda talabalar muloqotga ko'proq jalb etilgan, muhokamalar esa izchil va maqsadga yo'naltirilgan xarakter kasb etgan. Ayniqsa, o'qituvchining muhokamani umumlashtiruvchi savollari va fikrlarni yo'naltiruvchi izohlari muloqotning davomiyligini ta'minlagan. O'qituvchi ishtiroki minimal bo'lgan holatlarda esa muhokamalar qisqa va yuzaki bo'lib qolgan, talabalar bir-birining fikriga kamroq munosabat bildirgan (3-jadval).

3-jadval. O'qituvchining moderatsiya roli bo'yicha natijalar

Moderatsiya omillari	O'rtacha ball	Dispersiya	Ta'sir darajasi
Yo'naltiruvchi savollar	4.46	0.36	Juda yuqori
Fikr-mulohaza berish	4.38	0.40	Yuqori
Muhokamani boshqarish	4.29	0.43	Yuqori
Rag'batlantirish	4.41	0.38	Juda yuqori

Manba: Tadqiqotlar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

3-jadval natijalari pedagogik moderatsiya muloqot sifati va davomiyligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining moderatsiya uslubi ham muloqot sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Rag'batlantiruvchi va konstruktiv yondashuv talabalarda muloqotga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirgan. Aksincha, faqat nazoratga asoslangan yondashuv talabalarni ehtiyotkorlikka undab, ularning erkin fikr bildirishiga to'sqinlik qilgan. Bu holat virtual muhitda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish faqat texnik yoki tashkiliy masala emas, balki pedagogik mahorat bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Psixologik omillar ham empirik tahlilda muhim o'rin egalladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, psixologik jihatdan qulay muhit mavjud bo'lgan guruhlarda talabalar muloqotda faolroq ishtirok etgan. Bunday muhitda xatolardan qo'rqmaslik, fikrlarning hurmat bilan qabul qilinishi va ochiq munosabatlar ustun bo'lgan. Talabalar o'z fikrini bildirish jarayonida tanqid qilinishdan emas, balki fikr almashishdan manfaatdor bo'lgan. Natijada muloqot jarayoni raqobatga emas, hamkorlikka asoslangan shaklga ega bo'lgan (4-jadval).

4-jadval. Psixologik omillar va muloqot faolligi o'rtasidagi bog'liqlik

Psixologik omil	O'rtacha ball	Standart og'ish	Talqin
Fikr bildirish erkinligi	4.47	0.34	Juda yuqori
Xatolardan qo'rqmaslik	4.31	0.39	Yuqori
O'zaro hurmat muhiti	4.52	0.33	Juda yuqori
Ishonch muhiti	4.48	0.35	Juda yuqori

Manba: Tadqiqotlar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Psixologik xavfsizlik yuqori bo'lgan guruhlarda talabalar muloqotga faolroq kirishgan.

Psixologik xavfsizlik darajasi past bo'lgan holatlarda esa talabalar ko'proq passiv pozitsiyani egallagan. Ular asosan boshqalarning fikrlarini kuzatish bilan cheklangan yoki juda qisqa izohlar bilan ishtirok etgan. Bu holat muloqot ko'nikmalarining shakllanishi uchun faqat muloqot vositalarining mavjudligi yetarli emasligini, balki ularni qo'llash uchun qulay ijtimoiy-psixologik sharoit zarurligini ko'rsatadi (5-jadval).



5-jadval. So'rovnoma ishonchliligi (Cronbach's Alpha)

Shkala	Elementlar soni	Cronbach's Alpha
Platforma imkoniyatlari	5	0.87
Muloqot shakllari	3	0.84
Moderatsiya roli	4	0.89
Psixologik omillar	4	0.91
Umumiy shkala	16	0.93

Manba: Tadqiqotlar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

$\alpha \geq 0.70$ bo'lgani sababli so'rovnoma yuqori darajada ishonchli deb baholandi.

Tahlil natijalari talabalarining muloqotdagi faolligi ularning shaxsiy xususiyatlari va avvalgi tajribasi bilan ham bog'liq ekanini ko'rsatdi. Biroq platforma dizayni va pedagogik yondashuv ushbu individual farqlarni muvozanatlashtirish imkonini bergan. Masalan, asinxron muloqot introvert talabalarga o'z fikrini erkinroq ifodalash imkonini yaratgan bo'lsa, sinxron muloqot ekstrovert talabalarining faolligini qo'llab-quvvatlagan. Bu holat muloqot shakllarining xilma-xilligi ta'lim jarayonida inklyuzivlikni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, empirik natijalar virtual ta'lim muhitida muloqot ko'nikmalarining shakllanishi bir omil bilan emas, balki bir nechta omillarning o'zaro ta'siri orqali amalga oshirishini ko'rsatdi. Platformaning texnologik imkoniyatlari muloqot uchun zarur infratuzilmani yaratadi, o'qituvchining moderatsiya roli ushbu infratuzilmani pedagogik maqsadga yo'naltiradi, psixologik omillar esa muloqotning sifat va chuqurligini belgilaydi. Ushbu omillarning uyg'unlashuvi virtual ta'lim muhitida samarali muloqot va barqaror kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Natijalarni muhokama qilish shuni ko'rsatadiki, virtual ta'lim muhitida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish strategik va tizimli yondashuvni talab etadi. Muloqot faqat yordamchi faoliyat emas, balki ta'lim jarayonining markaziy elementi sifatida qaralgan taqdirdagina, u talabani akademik va shaxsiy rivojlanishiga real ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, olingan empirik natijalar virtual ta'limni tashkil etishda muloqotga yo'naltirilgan pedagogik dizaynni ishlab chiqish zarurligini asoslab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan natijalar virtual ta'lim muhitida muloqot ko'nikmalarining shakllanishi tizimli omillarga tayangan holda amalga oshirishini ko'rsatdi. Ma'lumotlar platformaning texnologik imkoniyatlari, o'qituvchining moderatsiya roli va psixologik muhit o'zaro uyg'unlashganda muloqot samaradorligi yuqori bo'lishini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, virtual ta'lim muhiti orqali talabalarining muloqot ko'nikmalarini shakllantirish platformaning texnologik imkoniyatlari, pedagogik dizayn, o'qituvchining moderatsiya faoliyati va psixologik omillarning uyg'unligiga bog'liq.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

virtual ta'lim platformalarida muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar ulushini oshirish, o'qituvchilarni onlayn moderatsiya bo'yicha maxsus tayyorlash va talabalarda raqamli muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Ushbu choralar virtual ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anderson T. The theory and practice of online learning. – New York: Athabasca University Press, 2020. – 472 p.
2. Garrison D. R., Anderson T., Archer W. Critical inquiry in a text-based environment: Computer conferencing in higher education // Internet and Higher Education. – 2000. – Vol. 2(2–3). – P. 87–105.
3. Jonassen D. H. Learning to solve problems with technology: A constructivist perspective. – New York: Routledge, 2017. – 298 p.
4. Salmon G. E-moderating: The key to online teaching and learning. – London: Routledge, 2019. – 256 p.
5. Boekaerts M. Self-regulated learning: Where we are today // International Journal of Educational Research. – 2018. – Vol. 98. – P. 45–58.
6. Zimmerman B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – 2018. – Vol. 41(2). – P. 64–70.
7. OECD. Innovative learning environments. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 197 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>